

Farg‘ona davlat texnika universiteti rektorining korrupsion va boshqa turdagi huquqbuzarliklar bo‘yicha xabar berish tartibi to‘g‘risidagi

NIZOM

Mazkur Nizom Farg‘ona davlat texnika universitet hududiy boshkarmalari, universitet professor-o‘qituvchilar orasida hamda jamiyatda korrupsion va boshqa qonun buzilishlariga qarshi kurashish madaniyati darajasini oshirish, har qanday huquqbuzarliklar sodir etishga qiziqitirishga bo‘lgan o‘rinishlarni aniqlash va ularga shu haqida ma‘lum bo‘lgan faktlar haqida xabar berish, ushbu xabarni ruyxatdan o‘tkazish va undagi ma‘lumotlar yuzasidan xizmat tekshiruvi o‘tkazish tartibini belgilaydi.

I bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom talablari egallab turgan lavozimi va bajaradigan vazifa va funksiyalaridan qat‘i nazar universitet bilan mehnat va fuqarolik munosabatlarida bo‘lgan barcha xodimlarga nisbatan tadbiq etiladi.

2. Universitet xodimlari korrupsiya va boshqa turdagi huquqbuzarliklar sodir etilganligi bo‘yicha asosli va haqqoniy ma‘lumot va faktlarga ega bo‘lsalar, shuningdek, ular bunday huquqbuzarlik sodir etilishiga og‘dirilsalar, bu haqida universitetning korrupsiyaga qarshi kurashish va “komplaens nazorat” tizimini muvofiqlashtirishga mas‘ul xodimlari yoki o‘zlari ishlayotgan muassasa rahbariyatiga bevosita og‘zaki yoki yozma ravishda aloqa kanallari orqali xabar berishlari shart.

II bob. Korrupsion va boshqa turdagi huquqbuzarliklar to‘g‘risida xabar berish tartibi

3. Korrupsion va boshqa turdagi huquqbuzarliklarga oid xabarlar quyidagi mas‘ullar va tuzilmalar hamda aloqa kanallari orqali beriladi:

Rektor va prorektorlar og‘zaki hamda yozma shaklda;

Farg‘ona davlat texnika universiteti rektorining telegram boti orqali;

telefon raqami;

telegram boti;

universitet va uning tarkibiy tuzilmalarining rasmiy veb-saytlarida joylashtirilgan shakllar orqali;

universitet va uning tarkibiy tuzilmalarining elektron pochta manzillari orqali; to‘g‘ridan-to‘g‘ri huquqni muhofaza qilish organlariga.

4. Universitet va uning tarkibiy tuzilmalariga yuqorida ko‘rsatilgan aloqa kanallari orqali kelib tushgan barcha xabarlar O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va universitetning ichki idoraviy hujjatlariga muvofiq xolisona va o‘z vaqtida ko‘rib chiqiladi.

5. Umumiy foydalanishdagi ijtimoiy tarmoqlarda berilgan, anonim tarzida berilgan, shuningdek huquqbuzarlik sodir etayotgan shaxs haqidagi ma‘lumotlar aniq ko‘rsatilmagan xabarlar huquqiy ahamiyatga ega bo‘lmaydi va ushbu ma‘lumotlarga tegishli tartibda universitet va tarkibiy tuzilmalarining ichki-tartib

qoidalari asosida baho beriladi.

III bob. Korrupsion va boshqa turdagi hukukbuzarliklar to'g'risidagi xabarga qo'yilgan talablar

6. Huquqbuzarlik to'g'isida berilayotgan xabarda quyidagi ma'lumotlar aks ettirilishi shart:

- xabar muallifining FISH, lavozimi;
- shaxsning murojaat qilishi uchun unga ma'lum bo'lgan holatlarning tavsifi (sana, joy, vaqt va boshqa holatlar);
- korrupsion yoki boshqa huquqbuzarlik turi va ushbu huquqbuzarlikni sodir etgan shaxs to'g'risidagi aniq ma'lumotlar;
- murojaat qilingan sana;
- murojaatchining telefon raqami.

7. Murojaat etuvchi o'z murojaatiga asos bo'ladigan boshqa hujjatlarni ham qo'shib taqdim etishi mumkin.

IV bob. Korrupsion va boshqa turdagi huquqbuzarliklar to'g'risidagi xabarlarni rasmiylashtirish tartibi

8. Korrupsion va boshqa turdagi huquqbuzarliklar haqidagi xabarlar korrupsion va boshqa turdagi huquqbuzarliklarni qayd etish daftari ro'yxatga olinadi.

9. Xabarlarni qayd etish daftari universitetning markaziy apparatida korrupsiyaga qarshi kurashish va "komplains nazorat" tizimini muvofiqlashtirishga mas'ul bo'limi xodimlari tomonidan, universitetda esa ushbu faoliyatni muvofiqlashtirishga mas'ul bo'lgan xodimlar tomonidan yuritiladi.

10. Xabarlarni qayd etish daftari varaqlariga nomer qo'yilib kengash yig'ilishida universitet tuzilmalarida esa muassasa rahbarlari tomonidan imzolaniadi.

11. Arizachi yolg'on xabar berganlik hamda tuhmat qilganlik uchun belgilangan tartibda jinoiy hamda ma'muriy javobgarlik mavjudligi haqida ogohlantiriladi.

12. Elektron ko'rinishda berilgan xabarlar ham yuqoridagi tartibda yozma ariza mazmuni va shakliga qo'yilgan talablarga amal qilingan holda taqdim etiladi va mazkur ariza yuzasidan mas'ul xodimlar arizachi bilan murojaat qilingan kun bog'lanib yolg'on xabar berganlik hamda tuhmat qilganlik uchun belgilangan tartibda jinoiy hamda ma'muriy javobgarlik mavjudligi haqida ogohlantiradi hamda darhol elektron ko'rinishdagi arizani xabarlarni vayd etish" daftari ushbu Nizomning 1-ilovasida belgilangan tartibda rasmiylashtiradi va ariza qabul qilinganligi to'g'risidagi ma'lumotni arizachiga yetkazadi.

13. Xabarlardagi keltirilgan ma'lumotlarning maxfiyligi kafolatlanadi.

V bob. Korrupsion va boshqa turdagi huquqbuzarliklar to'g'risidagi ma'lumotlarni mas'ullarga yetkazish va xizmat tekshiruvi o'tkazish tartibi hamda muddatlari

14. Huquqbuzarliklar to'g'risidagi xabarlar mas'ul xodimlar tomonidan universitetning tarkibiy tuzilmalarida muassasalar rahbarlariga zudlik bilan ma'lum qilinadi.

15. Xabarlar tegishli tartibda ko'rib chiqilganidan keyin natijasiga ko'ra quyidagi qarorlardan biri qabul qilinadi:

agar mazkur masala yuzasidan avval ham murojaat kelib tushgan bo'lib ushbu murojaatdagi holatlar o'z tasdig'ini topmagan bo'lsa, arizani rad etish to'g'risida;

xabar yuzasidan xizmat tekshiruvi o'tkazish to'g'risida;

xabarlardagi huquqbuzarliklar holatidan kelib chiqib huquqni muhofaza qilish organlariga taqdim etish to'g'risida;

16. Universitet tarkibiy tuzilma rahbarlarining topshirig'iga ko'ra xizmat tekshiruvi o'tkaziladi.

17. Xizmat tekshiruvi natijasi huquqbuzarlik sodir etilganligi fakta aniqlanganda tegishli muassasa rahbariga ikki ish kuni ichida bu haqida xabar beriladi.

18. Xizmat tekshiruvi amalga oshirilishi jarayonida xizmat tekshiruvini o'tkazayotgan xodimlar quyidagi huquqlarga ega:

huquqbuzarlik to'g'risida xabar bergan, xodim, talaba, o'quvchi va boshqa aloqador shaxslar bilan suhbat o'tkazish;

xodim, talaba, o'quvchi va boshqa aloqador shaxslar tomonidan yuborilgan xabarlar yuzasidan taqdim etilgan ma'lumotlarni o'rganish ular yuzasidan tushuntirishlar olish va boshqalar.

19. Ariza kelib tushgan kundan e'tiboran o'n besh kun ichida, qo'shimcha o'rganish talab etilganda bir oy muddatda ko'rib chiqiladi.

20. Xizmat tekshiruvi natijalari yuzasidan yozma xulosa tayyorlanib unda quyidagilar ko'rsatiladi:

taqdim etilgan ma'lumotlar yuzasidan o'rganish natijalari;

murojaatni tasdiqlovchi yoki rad etuvchi asoslar;

murojaat yuzasidan ko'rilgan ta'sir choralari;

murojaat yuzasidan aniqlangan sabab va sharoitlar yuzasidan amalga oshiriladigan aniq chora-tadbirlar.

21. Xabarlarni ko'rib chiqish natijalari buyicha arizachiga javob xati yuboriladi.

VI bob. Yakunlovchi qoidalar

22. Mazkur Nizomga qonunchilikda belgilangan tartibda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.